

O'zbekiston milliy metrologiya instituti Davlat korxonasi Qoraqalpog'iston filiali

Sadikov Jaksilik Perdebaevich	O'zbekiston milliy metrologiya instituti Davlat korxonasi Qoraqalpog'iston filiali boshlig'i	
	Mánzil:	230100, Nókis qalasi, Gárezsizlik kóshesi 57
	Telefon:	0(361) 222-66-33
	E-mail:	Standart.rk@exat.uz, kkusm_2010@mail.ru
	Qabillaw kúnleri::	Sárshembi, Juma 11:00-16:00

Qoraqalpog'iston Respublikasi Standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi

Funksional vazifalari:

O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun maxsus vakolat berilgan O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organi hisoblanadi. "O'zstandart" agentligi o'z faoliyatini amaldagi Qonunchilikka ko'ra bevosita va quyi tizim tashkilotlari orqali amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlar va xizmatlarning standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" 2004 yil 3 avgustdagi 373-sonli qaroriga asosan "O'zstandart" agentligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

"Standartlashtirish to'g'risida", "Metrologiya to'g'risida", "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari amalda ro'yobga chiqarilishini ta'minlash;

standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, xalqaro standartlarni, shu jumladan sifatni boshqarish tizimi bo'yicha xalqarostandardlarni qo'llash asosida mahsulotlar sifatini va ularning raqobatbardoshligini oshirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

standartlashtirish, o'lchovlar yagonaligi, sertifikatlashtirish tizimlari faoliyat ko'rsatishini va rivojlantirilishini, ushbu sohalardagi ilmiy-texnika axborotini akkreditatsiya qilish va tarqatishni, shuningdek ularning xalqaro, davlatlararo tizimlar va xorijiy mamlakatlarning milliy tizimlari bilan uyg'unlashtirilishini ta'minlash;

mahsulotlar, ishlar va xizmatlar xavfsizligi va sifati, o'lchovlar ishonchsiz natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilish talablariga rioya etilishi yuzasidan iste'molchilar huquqlari himoya qilinishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishlarini tashkil etish.